

O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari

«O'zbekiston Qahramoni» unvoni oliy darajadagi mukofot bo'lib, O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat va xalq oldidagi qahramonona jasorat ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlari uchun beriladi. «O'zbekiston Qahramoni» unvoni ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ham berilishi mumkin. «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan shaxsga «Oltin Yulduz» medali va unvon berilganligi to'g'risidagi tegishli hujjat topshiriladi. «O'zbekiston Qahramoni» unvonini belgilash va oliy nishon — «Oltin Yulduz» medalini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Mustaqillik» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari mustaqil huquqiy davlat barpo etish va uni mustahkamlashga, respublikada tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashga qo'shgan ulkan hissalarini uchun mukofotlanadilar. «Mustaqillik» ordeni bilan ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «Mustaqillik» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Amir Temur» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlatchilikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari, me'morchilikni, ilm-fan, adabiyot va san'atni, shu jumladan harbiy mahoratni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissalarini uchun mukofotlanadilar. «Amir Temur» ordeni bilan davlatlararo hamkorlikni, tinchlikni hamda xalqlar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash ishiga alohida hissa qo'shganlik uchun ham taqdirlanadilar. «Amir Temur» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Jaloliddin Manguberli» ordeni bilan mamlakat mustaqilligini, Vatani sarhadlarini, Vatani sarhadlarini, ona yurt tuprog'ini himoya qilishda hamda uni ko'z qorachig'iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalari ko'rsatgan, davlatimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan qo'mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanadilar. «Jaloliddin Manguberli» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda xorijiy davlatlarning fuqarolari fan va texnikani, iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishdagi katta xizmatlari, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga hamda O'zbekistonning xalqaro obro'sini oshirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish ishiga sezilarli hissa qo'shganligi uchun taqdirlanadilar. «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «El-yurt hurmati» ordeni bilan mamlakat mustaqilligini, uning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga, milliy ma'naviyatni, madaniyatni yuksaltirishga katta hissa qo'shgan, o'z mehnati, ilmiy, jamoat ishi, mehnatsevarligi va vatanparvarligi bilan jamoatchilikning izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadilar. «El-yurt hurmati» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «El-yurt hurmati» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan mamlakatning iqtisodiy va madaniy yuksalishiga, mudofaa qudratini kuchaytirish va milliy xavfsizligini ta'minlashga, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga, xalq farovonligini oshirishga katta hissa qo'shgan, o'zining iste'dodi, bilim va tajribasini Vatanimiz ravnaqiga baxsh etib, fidoiylilik namunasini ko'rsatib kelayotgan fuqarolar va harbiy xizmatchilar mukofotlanadi. «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «Fidokorona xizmatlari uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Mehnat shuhrati» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari O'zbekistonda iqtisodiyot va madaniyat yuksalishiga, xalq farovonligi oshirishiga, tinchlik va barqarorlik saqlanishiga xizmat qiladigan ulkan ishlari uchun mukofotlanadilar. Mustasno hollarda «Mehnat shuhrati» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «Mehnat shuhrati» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan kishilar onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta'minlashdagi alohida xizmatlari uchun mukofotlanadilar. «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan kishilar ham mukofotlanishi mumkin. «Sog'lom avlod uchun» ordeni ikki darajadan iborat bo'ladi: I darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Shon-sharaf» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Vatanni himoya qilishda ko'rsatgan fidoiylilik va mardlik uchun, O'zbekistonda mudofaa qudratini va milliy xavfsizlikni mustahkamlash, qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirish va huquq-tartibotni ta'minlash ishidagi katta xizmatlari uchun mukofotlanadilar. Mustasno hollarda «Shon-sharaf» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «Shon-sharaf» ordeni ikki darajadan iborat bo'ladi: I darajali «Shon-sharaf» ordeni II darajali «Shon-sharaf» ordeni «Shon-sharaf» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Do'stlik» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o'rtasida do'stlik, o'zaro hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash ishida erishgan katta yutuqlari, O'zbekiston xalqining boshqa mamlakatlar xalqlari bilan do'stlik va har taraflama hamkorligini rivojlantirganliklari uchun mukofotlanadilar. «Do'stlik» ordeni bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin. «Do'stlik» ordenini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Jasorat» medali bilan O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmatining va ichki ishlar organlarining xodimlari respublikaning milliy xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda, harbiy burchni yoki xizmat burchini ado etish vaqtida ko'rsatgan mardlik va jasoratlari uchun mukofotlanadilar. «Jasorat» medali bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar tabiiy ofat, yong'in va boshqa favqulodda holatlar jamoat tartibini saqlashda, odamlar hayotini, davlat va jamoat mulkini saqlab qolishda ko'rsatgan jasoratlari uchun mukofotlanishi mumkin. «Jasorat» medalini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Shuhrat» medali bilan respublika iqtisodiyoti, fani va madaniyatini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik hamda milliy istiqbol va ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash ishida o'zining halol mehnati bilan katta yutuqlarga erishgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar mukofotlanadilar. «Shuhrat» medalini ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil» esdalik nishoni bilan davlatimiz mustaqilligi, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy-ta'lim, madaniy, ma'naviy salohiyati va mudofaa qudratini mustahkamlash, uning sarhadlari xavfsizligi va daxlsizligini ta'minlash, mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiyalash, Vatanimizning munosib yosh avlodini tarbiyalash ishida fidokorlik namunalari ko'rsatayotgan ziyolilar, fan va san'at arboblari, ischi va xizmatchilar, tadbirkorlar, fermerlar, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari va boshqa shaxslar taqdirlanadilar. «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 20 yil» esdalik nishoni ta'sis etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 34 ta faxriy unvon ta'sis etilgan.

Ko'rib chiqildi:



[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)